PROFESSIONAL TA’LIMDA RAQAMLI TA’LIM RESURSLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

D.B.Abduraximov - GulDU “Axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti
O.O.Islomov, D.K.Safoyeva - GulDU, “Axborot tizimlari” mutaxassisligi magistrantlari

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivoji hayotimizdagi ko‘plab sohalarga ta’sir ko‘rsatdi. Barcha jabhaga raqamlashtirishning kirib kelishi, yuqori sur’atdagi taraqqiyot sanoatning jadal ravnaqida muhim ahamiyatga ega. XXI asr – raqamli texnologiyalar davri sifatida e’tirof etiladi. Globallashuv va raqamlashtirish tendensiyalari inson faoliyatining barcha jabhalarida, jumladan, ta’lim sohasida ham chuqur o‘z aksini topmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ilmiy tadqiqotlar, axborot texnologiyalari, startap g‘oyalar, kompyuter savodxonligiga katta e’tibor berilgan. Bizning oldimizda ham shu yo‘l turibdi: faqat ilm-fan yutuqlari va yangi texnologiyalar orqali yuqori iqtisodiy taraqqiyotga erishishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi Farmonida raqamli texnologiyalar asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish vazifasi belgilangan.

Bugungi kunda axborot olish va undan foydalanish tezligining keskin oshishi ta’lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishni ta’lim sifatini yaxshilash va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda muhim vositaga aylantirmoqda. Oldingi davrlarda ta’lim ko‘proq an’anaviy usullar - ma’ruzalar, yirik hajmdagi kitob va qo‘llanmalar orqali olib borilgan bo‘lsa, bu ta’lim sifatining yuqori darajasiga etishishni qiyinlashtirgan. Hozir esa ta’lim sifatini oshirish uchun raqamlashtirish jarayoni faol joriy qilinmoqda.

Bugungi ta’lim tizimi noan’anaviy, ya’ni raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rni tobora kuchayib borayotgan davrni boshdan kechirmoqda. Bu texnologiyalar yordamida o‘quvchilar bilimlarni an’anaviy usullarga nisbatan tezroq egallaydilar. Ular bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish shaklini tubdan o‘zgartirib, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, tez yangilash, samarali o‘qitish usullarini qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga, har bir inson uchun ta’lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Xususan, IT texnologiyalarining ta’lim jarayoniga keng tatbiq etilishi o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni rivojlantirish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va amaliy tajriba hosil qilish imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. IT sohasida malakali mutaxassislarga bo‘lgan talab ortib borayotgan sharoitda, an’anaviy ta’lim usullaridan tashqari raqamli ta’lim resurslari muhim rol o‘ynaydi.

Raqamli texnologiya bu - xo‘jalik faoliyatining zamonaviy shakli bo‘lib, unda asosiy omil sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta hajmdagi ma’lumotlar va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Olingan natijalarni amaliyotga tatbiq qilish an’anaviy

xo‘jalik yuritish usullariga nisbatan sezilarli darajada samaradorlikni oshiradi. Masalan, turli avtomatik ishlab chiqarish jarayonlari, 3D-texnologiyalar, bulutli texnologiyalar, masofaviy tibbiyot xizmatlari, aqlli texnologiyalar yordamida mahsulot etishtirish va etkazib berish, shuningdek, tovarlarni saqlash va sotish jarayonlari raqamli texnologiyalar orqali boshqarilmoqda.

Raqamli ta’lim resurslari - bu elektron formatdagi o‘quv materiallari bo‘lib, ular yordamida o‘quvchilar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilar bilim olishlari, o‘qitishlari va ilmiy ishlar olib borishlari mumkin. Raqamli resurslar zamonaviy ta’lim jarayonini qiziqarli, samarali va qulay qiladi.

Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Ko‘p sonli ma’lumot va o‘quv materiallariga kirish; masalan, video darsliklar, darsliklar, onlayn kurslar va boshqalarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli ta’lim resurslarini taklif etadi.

Interfaol taqdimotlar yaratish, multimedia materiallaridan foydalanish, murakkab jarayonlar va tushunchalarni vizualizatsiya qilish - darslarni o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli va tushunarli qilishga yordam beradi.

Darslar va materiallarni o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, o‘quv platformalari va o‘quv o‘yinlari kabi dasturlar, ilovalar turli darajadagi qiyinchiliklar va o‘rganishdagi yondashuvlarni o‘rnatishga imkon beradi.

O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va aloqa imkoniyatlarini amalga oshirish, talabalar materiallarni muhokama qilishlari, fikr almashishlari va savollar berishlari mumkin bo‘lgan onlayn forumlar, suhbatlar, bloglar va elektron guruhlarni yaratish.

Baholash va jurnalga yozish kabi ba’zi muntazam vazifalarni avtomatlashtirish, bu o‘qituvchilarga faol o‘rganish va o‘quvchilar bilan individual muloqot qilish uchun ko‘proq vaqt ajratish imkonini beradi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga samarali va qiziqarli ta’lim olish uchun yangi vositalar va imkoniyatlarni taqdim etadi, ammo shuni yodda tutish kerakki, ushbu texnologiyalardan foydalanish ongli bo‘lishi va o‘quvchilarning ehtiyojlari hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Xulosa. Raqamli ta’lim resurslari yoshlarni IT sohasiga jalb qilish va ularning bilim darajasini oshirishning eng samarali usullaridan biridir. Platformalar, virtual laboratoriyalar, o‘yinlashtirilgan ta’lim va MOOC dasturlari yordamida professional ta’lim sifatini oshirish mumkin. Kelajakda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va kiberxavfsizlik kabi sohalarda yanada rivojlangan resurslar yaratish orqali yoshlarning IT kompetensiyasini oshirish mumkin bo‘ladi.